



**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2022- YIL
YANVAR-DEKABR**

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami **7831,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **105,8 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



2331

Bino va inshootlar qurish

389

Fuqarolik obyektlarini qurish

777

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 135,5 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 66,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan 4,3 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,1 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan 32,8 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 22,2 foiz ulushni tashkil etib, 0,9 foizga kamaygan.

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.12.2022- y.	01.12.2023- y.	
Qashqadaryo viloyati	3371	3497	103,7
shaharlar:			
Qarshi sh.	882	901	102,2
Shahrisabz sh.	142	151	106,3
tumanlar:			
G'uzor	141	137	97,2
Dehqonobod	153	140	91,5
Qamashi	165	167	101,2
Qarshi	381	402	105,5
Koson	302	328	108,6
Kitob	123	141	114,6
Mirishkor	82	105	128,0
Muborak	178	162	91,0
Nishon	124	123	99,2
Kasbi	160	164	102,5
Ko'kdala	0	43	0
Chiroqchi	213	190	89,2
Shahrisabz	112	126	112,5
Yakkabog'	213	217	101,9



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Qarshi sh. (25,9)



Qarshi (11,5)



Koson (9,4)



Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qashqadaryo viloyati	7831,1	2101,4	3868,6	1861,1
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	1867,3	696,2	987,1	184
Shahrisabz sh.	329,1	94,6	180,6	53,9
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	824,2	348,0	340,2	136
Dehqonobod	171,2	0,0	50,2	121
Qamashi	213,7	0,0	110	103,7
Qarshi	630,1	35,4	492,1	102,6
Koson	511,8	27,4	328,9	155,5
Kitob	521,0	51,5	306,9	162,6
Mirishkor	196,2	0,0	80	116,2
Muborak	711,2	469,7	147,4	94,1
Nishon	235,0	23,4	155,4	56,2
Kasbi	282,6	2,3	145,6	134,7
Ko'kdala	96,6	0,0	10,2	86,4
Chiroqchi	634,9	322,2	178,2	134,5
Shahrisabz	230,0	0,1	154,3	75,6
Yakkabog'	376,0	30,5	201,4	144,1

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2101,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 118,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 3,0 % punktga ko'payib, 26,8 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 22,4 % i yoki 2021- yilga nisbatan 5,5 marta ko'paydi), G'uzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 16,6 % i yoki 2021- yilga nisbatan 4,4 marta ko'paydi) va Chiroqchi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 15,3 % i yoki 2021- yilga nisbatan 37,6 marta ko'paydi) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 49,4 % i to'g'ri kelib, 2021- yil ko'rsatkichiga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 101,4 % ni tashkil etgan holda 3868,6 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



49,4

2022- yil yanvar-dekabr

51,2

2021- yil yanvar-dekabr




MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Qarshi tumani (987,0 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 25,5 %), Qarshi tumani (492,2 mlrd. so'm yoki 12,7 %), G'uzor tumani (340,3 mlrd. so'm yoki 8,8 %) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,8 %** ni tashkil etdi yoki **1861,1 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan **102,9 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **375,1 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **7456,0 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,9 %** va **95,1 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-dekabr



2022- yil yanvar-dekabr



Nodavlat mulk

Mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-dekabr oylarida



	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd.so'm	ulushi,% da
Qashqadaryo viloyati	7831,1	330,9	4,2	7500,2	95,8
<i>shaharlar:</i>					
Qarshi sh.	1867,3	330,9	17,7	1536,4	82,3
Shahrisabz sh.	329,1			329,1	100
<i>tumanlar:</i>					
G'uzor	824,2			824,2	100
Dehqonobod	171,2			171,2	100
Qamashi	213,7			213,7	100
Qarshi	630,1			630,1	100
Koson	511,8			511,8	100
Kitob	521,0			521,0	100
Mirishkor	196,2			196,2	100
Muborak	711,2			711,2	100
Nishon	235,0			235,0	100
Kasbi	282,6			282,6	100
Ko'kdala	96,6			96,6	100
Chiroqchi	634,9			634,9	100
Shahrisabz	230,0			230,0	100
Yakkabog'	376,0			376,0	100



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar-dekabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **63,3 %** i yoki **4954,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

24,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1211,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **24,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2052,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **41,4 %** ni tashkil etdi.

41,4 %

34,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1690,8** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **34,2 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-dekabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan,% da
Qashqadaryo viloyati	7831,1	105,8	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	1867,3	92,2	23,8
Shahrisabz sh.	329,1	79,6	4,2
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	824,2	142,5	10,5
Dehqonobod	171,2	107,9	2,2
Qamashi	213,7	82,2	2,7
Qarshi	630,1	117,4	8,0
Koson	511,8	101,3	6,5
Kitob	521,0	101,7	6,7
Mirishkor	196,2	93,1	2,5
Muborak	711,2	177,8	9,1
Nishon	235,0	95,5	3,0
Kasbi	282,6	105,5	3,6
Ko'kdala	96,6	108,7	1,2
Chiroqchi	634,9	110,3	8,1
Shahrisabz	230,0	99,3	2,9
Yakkabog'	376,0	97,0	4,8



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 4,7 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,8 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,5 % punktga ko'payib, 70,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,7% punktga kamayib, 25,0 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 25,3 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 9,1 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 74,7 % (9,1 % punktga ko'paydi).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2021- yil
yanvar-dekabr



2022- yil
yanvar-dekabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 10,1 % punktga ko'paydi va 62,7 % ni tashkil etdi. Qolgan 37,3 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilga nisbatan 10,1 % punktga kamaydi.

